



UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARIDA FAOL FUQAROLIK POZITSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK -PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA TAHLILI

Abdullayev Dilshodbek Yuldasali o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

abdullayevdilshodbek1992@mail.ru

+99897-214-48-08

Annotatsiya: Umumta'lism muktab o'quvchilarida faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish orqali yoshlarni fuqarolik ruhida tarbiyalashning ahamiyati va pedagogik-psixologik tahlili haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: faol fuqaro; fuqaro; fuqarolik; fuqarolik tarbiyasi; fuqarolik pozitsiyasi; axloqiy tarbiya; fuqarolik madaniyati.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES AND ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF ACTIVE CITIZENSHIP POSITION IN GENERAL SCHOOL STUDENTS

Abstract: The importance and pedagogical and psychological analysis of educating young people in the spirit of citizenship by developing an active civic position in secondary school students is discussed.

Keywords: active citizen; citizen; citizenship; civic education; civic position; moral education; civic culture.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА И АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ АКТИВНОЙ ГРАЖДАНСКОЙ ПОЗИЦИИ У ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация: Обсуждается важность и педагогико-психологический анализ воспитания молодежи в духе гражданственности через развитие активной гражданской позиции у учащихся общеобразовательных школ.

Ключевые слова: активный гражданин; гражданин; гражданство; гражданское образование; гражданская позиция; нравственное воспитание; гражданская культура.

KIRISH

Bugungi yosh avlod davlatimiz mustaqilligi va taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadigan juda katta kuch sanaladi, shu bois umumta'lism maktablarining o'rta va yuqori sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalash; o'smirlik



yoshiga xos ichki pozitsiyaning paydo bo'lishi; ijtimoiy faollik, bilishga intilish va o'zini namoyon qilish motivlarining rivojlanishi; fuqarolik pozitsiyasi, o'zi va atrofdagilarga hamda jamiyatga munosabat asoslarining shakllanishini inobatga olinishi lozim bo'lgan jihatlarga e'tibor qaratish ko'zda tutilmoqda.

"Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishning maqsadlari sifatida ko'rsatib o'tilgan. Ushbu ustuvor maqsadlar umumta'lim mакtablarining yuqori sinf o'quvchilarida faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish mazmuni, tamoyillari, metodikasini takomillashtirishni taqozo etadi.

ADBIYOTLAR TAHLILI:

Mamlakatimizda o'quvchi yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari O.Musurmonova, A.Akramov, B.Abdullayeva, A.Asqarov, Sh.Baratov, N.Djamilova, A.Begmatov, O.Jamoliddinova, X.Ibragimov, M.Qaxxarova, A.Mavrulov, N.Muslimov, D.Ro'ziyeva, X.Tojiboyeva B.Xodjayev, G.Tulenova, Sh.Sharipov, Sh.Shodmonova, G'.Shoumarov, N.Egamberdiyeva kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ummuta'lim maktablarida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar vositasida yuqori sinf o'quvchilarida faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari ishlab chiqilganligi, shaxsning faol fuqarolik pozitsiyasini egallash imkoniyatlarini kengaytirish, baholash metodikasi, mezon ko'rsatkichlari, shaxs faolligini namoyon etishning pedagogik shart-sharoitlarini yaratishga oid yondashuvlarning aniqlanganligi bilan izohlanadi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi davlat Mustaqilligining 33 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqida aynan



mustaqillik tufayli milliy davlatchiligidan qayta tiklandi, keyingi yillarda Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida ulkan qadamlar qo'ydi. Barcha islohotlarimizning ruhi va mazmuniga "Inson qadri uchun, el-yurt baxti uchun!" degan ezgu g'oya chuqur kirib bormoqda, odamlarimizda hayotdagi muammolar yechimiga daxldorlik hissi, faol fuqarolik pozitsiyasi kuchaymoqda, deb alohida ta'kidlab o'tdi.

Ko'plab tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlarida harakatchanligi va jamiyatning taraqqiyoti va yangilanishidan manfaatdorligi tufayli yoshlar o'ziga xos g'ayrat, tashabbuskorlik, barcha yangi va ilg'or narsalarga moyilligi bois, olib borilayotgan o'zgarishlar yo'lining ulkan bunyodkor salohiyatiga, asosiy ijtimoiy negiziga aylanishi, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tizimida yoshlar: mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayoti barcha tomonlarini yangilash ijtimoiy negizi, jamiyatning mamlakat taqdiri va uning kelajagi uchun fuqarolik mas'uliyat hissi rivojlangan siyosiy faol qismini to'ldirib borish manbasi, jamiyat barqarorligini ta'minlashda o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olish zarur bo'lgan aholi toifasi sifatida qaralishi zarurligi ta'kidlab o'tildi.

Mamlakatimizda 2016-yilda «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi o'quvchi-yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiyligi va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimini yanada takomillashtirish va yangi bosqichga ko'tarish uchun asos bo'ldi.

Qonunda yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash; yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari tarkibiga kiritildi.

"2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda fuqarolar o'rtaida qonunga hurmat va itoat qilish hissini shakllantirish maqsadida aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat organlarining fuqarolik



jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va ta'lif tashkilotlari bilan o'zaro samarali hamkorligini yo'lga qo'yish zarurligi ta'kidlab o'tilgan.

Chunki bugungi yosh avlod davlatimiz mustaqilligi va taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadigan juda katta kuch sanaladi. Shu bois o'quvchilarning kelgusida davlat va jamiyat taraqqiyoti, davlat boshqaruvidagi faol ishtirokini ta'minlash umumta'lif muktablarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu vazifa - fuqarolik tarbiyasining mazmunida o'z aksini topadi.

Hozirgi davrda o'spirinlarni tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatatlari, imkoniyatlari xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. Jumladan, o'spirinlik davrida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish uchun juda katta imkoniyatlar mavjud bo'lib, uning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- 1) fan va texnika rivojlanishi natijasida madaniyat, san'at va adabiyot, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o'zgarayotgani;
- 2) ommaviy axborot vositalari ko'laming kengayishi tufayli o'smirlar ongliligi darajasining ko'tarilgani;
- 3) o'g'il va qizlarning dunyo voqealaridan, tabiat va jamiyat, fan va texnika rivojlanishi natijasida madaniyat, san'at va adabiyot, ijtimoiy-qonunlaridan, tarixdan yetarli darajada xabardorligi;
- 4) ularning jismoniy va aqliy kamoloti jadallahshgani;
- 5) o'smirlar bilan ishlashda g'oyaviy-siyosiy va vatanarvarlik va baynalmilal tarbiyaga alohida yondashish zarurligi;
- 6) oshkorlik, ijtimoiyadolat, demokratiya muammolarining ijtimoiy hayotga chuqur kirib borayotgani;
- 7) o'quvchilar uchun mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritish, o'zini o'zi boshqarish, anglash, baholash va nazorat qilishga keng imkoniyat yaratilgani.

Yuqori sinf o'quvchilarini faol fuqarolik pozitsiyasini qabul qilishga, jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy jarayonlarda ishtirok etishga o'rgatish kerak. Tanqidiy fikrlash qobiliyatlari ularga ijtimoiy masalalarga to'g'ri qarashlarni shakllantirishga yordam beradi.



Pedagog o'zining shaxsiy namunasi va faoliyati bilan o'quvchilarga ko'p narsalarni o'rgatishi mumkin. Ularning hayotga nisbatan munosabatlari, ijtimoiy faoliyati pedagogning o'quvchilarni fuqarolik tarbiyasidagi muhim omil hisoblanadi.

Yuqori sinf o'quvchilarining bilish jarayonlari turli nuqtai nazarlarni tahlil etishga va bu masala bo'yicha xar tomonlama o'ylagan o'z fikrini berishga yordam bera oladi. Bu yoshdagi o'spirinlar atrofdagi turli voqeа-hodisalardagi xaqiqatni bilishga intiladi. Ularning tayyor yechimlar, ma'lumotlar emas, balki shu yechim va ma'lumotlarni o'zlari muloxaza yurgizib, qidirish jarayoniniig o'zi ko'proq qiziqtiradi. Bu borada turli masalalar bo'yicha bahs va munozaralar yuritishga va ularning fikrlarini isbotlashga juda qiziqadilar.

O'spirinlik davrida bilish jarayonlarining rivoji faol ravishda davom etadi, lekin, bu rivojlanish o'spirinning o'ziga va uning atrofidagi kuzatuvchilarga kam seziladi. Bu davrga kelib, o'spirinlar to'la ravishda mantiqiy tafakkurga ega bo'ladilar, nazariy fikr yuritib, o'zlarini-o'zlari taxlil eta oladilar. Ular endi bemalol axloqiy, siyosiy va boshqa mavzularda bahslasha olib, o'z munosabatlarini bildiradilar.

O'spirinlik davrida bolalar juda ko'p ilmiy tushunchalarni o'zlashtirib, ulardan turli masala va muammolarni yechishda foydalana oladilar. Bolalarda anglash va o'z-o'zini anglash sezilarli darajada o'sadi. O'spirinning o'z-o'zini anglashi o'quv, mehnat va muloqot motivatsiyalarini o'zgarishida o'z aksini topadi. Bu davrda, bolada yangi faoliyatlar yuzaga kelib, psixik rivojlanishida yangi bosqich boshlanadi.

O'spirinlik yoshi o'qish, mehnat, muloqot singari yetakchi faoliyatlar asosida umumiy va maxsus layoqatlarning rivojlanayotganligi bilan xarakterlanadi. O'spirinlik davrida bilish jarayonlarining rivojlanishi faol kechadi. Lekin, bu rivojlanish o'spirinning o'ziga va uning atrofidagi kuzatuvchilarga kam seziladi. O'spirinlik davriga kelib, juda ko'p bolalarda o'z faoliyatlarini oldindan rejalashtirish layoqati yaxshi rivojlangan boladi. Shuningdek, o'z-o'zini boshqarish ham o'spirinlik yoshidagi bolalarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'spirinning o'quv mashg'ulotiga munosabati o'z xususiyati va mazmuni jihatidan boshqa yoshdagi o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi munosabatidan tubdan farq qiladi. O'quv rejasi va dasturning murakkablashuvi, yangi fan va



mavzularning kiritilishi, o'zlashtirilishi nazariy tafakkur yordamida amalga oshirishi taqozo etadi. Ana shundan kelib chiqqan holda, o'quvchilarning o'qishga munosabati ham o'zgaradi, ular ayrim fanlarga tanlab munosabatda bo'la boshlaydilar.

O'quvchilarga turli mavzular bo'yicha o'zaro muhokama qilish imkoniyatlarini yaratish muhim. Bu ularga shaxsiyatni shakllantirish, fikrlash qobiliyatlarini oshirish va jamiyatdagi dolzarb masalalarga faol munosabat bildirishga yordam beradi.

Faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish uchun o'quvchilarning ijtimoiy va emotsiyal rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lishi kerak. Ular o'z his tuyg'ularini boshqarish va ijtimoiy muhitda o'zini to'g'ri tutishni o'rganishlari kerak.

Qisqacha aytadigan bo'lsak, yuqori sinf o'quvchilarining faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishda pedagogik va psixologik yondashuvlarning umumiyl maqsadi ularni fuqarolik burchini his qilishga, ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga va jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyorlashdan iboratdir.

Tadqiqotchi H.T.Suvonqulov o'z izlanishlarida tarbiya fani o'quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish, ularning har tomonlama ijtimoiylashuviga ko'maklashish, samarali hamkorlik qilish, vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy, ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, o'zlarining intellektual va kreativ salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qilishini ta'kidlaydi hamda mamlakat taraqqiyoti, millat kelajagi bo'lgan har bir yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etadi, deb hisoblaydi.

Shunday qilib, yuqori sinf o'quvchilarining faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish jarayonida uning shaxsiy tajribasini shunday yo'lga qo'yish kerakki, bu tajriba ijtimoiy axloq norma va qoidalarini o'zlashtirib olish uchun qulay zamin yaratsin.

Shaxsiy tajriba va ijtimoiy talablar bir-biriga ta'sir ko'rsatib turgan vaqtida o'quvchi shaxsini tarkib toptirish jarayonida o'quvchida uning xatti-harakatlarini hamisha harakatga keltiruvchi motivlarga aylanib qolgan e'tiqod va ideallar tizimi yuzaga keladi. Ana shu asosda shaxsning axloqiy barqarorligi, ya'ni odamning o'zi



o'zlashtirgan prinsiplariga va ularga mos keladigan xatti-harakatiga har qanday sharoitda ham sodiq bo'lib qolish qobiliyati paydo bo'ladi.

Ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'quvchi-yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish omillari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. O.Muhammedova bo'sh vaqtini samarasiz o'tkazayotgan yoshlarni to'g'ri yo'lga yo'naltirib, ularning o'z qobiliyat va imkoniyatlariga ishonch uyg'otish, ularda mustaqil fikr lash, o'z fuqarolik pozitsiyasini namoyon etish ko'nikmalarini shakllantirish zarur vazifalardan biri ekanligini ta'kidlagan holda, ushbu vazifalarni amalga oshirishning quyidagi bir qator omillariga e'tibor qaratish lozim deb hisoblaydi:

- 1) oiladagi ijtimoiy muhit;
- 2) mактабгача tarbiya va maktab ta'lіm muassaalarida tarbiyachi va o'qituvchilarning bolalar bilan olib boradigan ta'lіm-tarbiya ishlarining to'g'ri yo'lga qо'yilganligi;
- 3) mahalla faollarining yoshlar bilan olib boradigan turli xil shakldagi tadbirlari;
- 4) jamoat tashkilotlari, nodavlat vanotijorat tashkilotlar, siyosiy partiyalarning yoshlar bilan olib boradigan faoliyati;
- 5) ommaviy axborot vositalari orqali berilayotgan yoshlarni faollikka undovchi ko'rsatuv va eshittirishlarni yanada takomillashtirish.

Taniqli o'zbek pedagogi O Musurmonova mustaqillikning dastlabki yillarda yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy madaniyatini shakllantirish maqsadida yaratiladigan ta'lіm va tarbiyada quyidagi omillarga e'tibor berish talab etilishini nazarda tutgan edi:

- ta'lіm-tarbiya mazmuni, shakl, usul va vositalarining milliy xarakteri;
- ijtimoiy omillar, ta'lіm-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish, gumanitarlashtirish, mustaqillik, erkinlik, oshkorlik va tenglik;
- hududiy omillar: o'quvchi yashayotgan o'lka, madaniy qadriyatlarining mazmun qamrovi, boyligi, tarixiy o'rni va ahamiyati;



- məktəb və sinfning moddiy-texnika bazasi, məktəb kitabxona fondı, muzey və mənəviy qadriyatlarnı o'rGANISH markazları; to'garak faoliyatining mazmunan rang-barangligi.

XULOSA

Xulosa o'mida shuni ta'kidlash mumkinki, Faol fuqarolik pozitsiyasi insonning jamiyatga bo'lgan munosabatini, axloqiy qoidalarga amal qilishini va ijtimoiy vazifalarga yondoshishini shakllantiradi. Pedagogik va psixologik nuqtai nazardan, o'quvchi-yoshlarning faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish ularni jamiyatdagi muhim muammolarni hal qilishga, demokratik prinsiplarga ishonchni oshirishga, va ijtimoiy majburiyatlarini sezishga olib keladi.

Pedagogik jarayonda yuqori sinf o'quvchilarida faol fuqarolik pozitsiyasini rivojtirish uchun jamiyat va huquq, axloq, tarixi va madaniyati haqida bilim, ko'nikma va malaklarni tizimli shakllantirish muhis ahamiyat kasb etadi.

Psixologik nuqtai nazardan, yuqori sinf o'quvchilarida faol fuqarolik pozitsiyasini rivojtirish uchun shaxsning ichki irodasi, o'zlik va mas'uliyat hissi muhimdir.

Yuqori sinf o'quvchilarida faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari ko'p qirrali bo'lib, ularning birlashgan ta'siri yoshlarning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishlariga yordam beradi. Bu, avvalo, oila, məktəb, davlat və jamiyat tomonidan birgalikda amalga oshiriladigan tarbiya və ta'lim jarayonining integratsiyalashuvi bilan amalga oshirilishi lozim. Tarbiya və ta'limga psixologik omillari shaxsning ichki dunyosi, jamiyatga bo'lgan munosabati və axloqiy qadriyatlariiga taalluqli bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Узлуксиз маънавий тарбия КОНЦЕПЦИЯСИ. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2019 йил 31 декабрьдаги "Узлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 1059-сон қарорига 1-ИЛОВА.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида» ГИ ПФ-60-сонли Фармонига 1-илова



Мусурмонова О., Қирғизбоев А., Жамолдинов О., Йўлдошева С., Рискулова К., Атаева Г. Узлуксиз таълим тизимида ёшлар маънавиятини шакллантириш. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2014. -128 б.

3. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 14 сентябрдаги «Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида»ги ЎРҚ-406-сонли Қонуни.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ГИ ПФ-60-сонли Фармонига 1-Илова.

5. Suvonqulov H.T. Tarbiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning milliy qadriyatlarga qiziqishini rivojlantirish metodikasi. Ped.fan.bo‘yicha falsafa dok. (PhD) diss.avtoreferati. -Termiz, 2023 y. – 52-b.

6. Мухаммедова О. Ёшларда фуқаролик позициясини шакллантириш омиллари. Камолиддин Беҳзод номидаги Миллий рассомчилик ва дизайн институти Ўқув-услубий кенгашининг 2020 йил ноябрдаги 4-сонли баённомаси билан нашрга тавсия этилган “Ёшларда қатъий фуқаролик позициясини шакллантиришда санъат ва гумантар фанларнинг ўрни” мавзусидаги тўплам материаллари. -152 б.

7. Мусурмонва О. Маънавий қадриятлар ва ёшлар тарбиясиб умумтаълим мактаблари учун. -Т.: “Ўқитувчи”, 1996 й. -192 б.